

QISHLOQ XO‘JALIGIMAHSULOTLAR ETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH CHORA–TADBIRLAR

Utebergenov Asamatdiyn Abdraxmanovich
Qoraqalpog‘ davlat universiteti iqtisodiyot kafedrasida tayanch doktranti
e-mail: utebergenovasamatdin@gmail.com
Telefon: [+99 899 554 66 45](tel:+998995546645)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.2743081>

Annotatsiya: *Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligida agroinnovatsiya va intellektual salohiyatning yuqoriligi bilan barqaror iqtisodiyotga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiya va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan hududga aylantirishimiz muhimligi va qishloq xo‘jaligi uchun suv resurslarini samarali ishlatishga, suv ta‘minoti va sug‘orish tizimlarini rivojlantirishga ahamiyat ochib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, oziq-ovqat, xavfsizlik, hudud, potentsial, resurs, suv, ekologik, sanoat, rivojlantirish, bozor, raqobatbardosh.*

Аннотация: *Важность превращения Республики Каракалпакстан в стабильную экономику, конкурентоспособную промышленность на современном и мировом рынке, а также быстроразвивающийся регион с благоприятной инвестиционной и деловой средой, с высоким уровнем агроинновационного и интеллектуального потенциала в сельском хозяйстве, а важность эффективного использования водных ресурсов для сельского хозяйства придаст развитие систем водоснабжения и орошения.*

Ключевые слова. *сельское хозяйство, производство, продовольствие, безопасность, территория, потенциал, ресурс, вода, окружающая среда, промышленность, развитие, рынок, конкурентоспособность.*

Abstract: *The importance of turning the Republic of Karakalpakstan into a stable economy, competitive industry in the modern and global market, as well as a rapidly developing region with a favorable investment and business environment, with*

a high level of agroinnovation and intellectual potential in agriculture, and the importance of the effective use of water resources for agriculture, the development of water supply and irrigation systems will give.

Keywords: *agriculture, production, food, security, territory, potential, resource, water, environmental, industry, development, market, competitiveness.*

Ilmiy-texnika taraqqiyotida agrar tadqiqotlar yetakchi tarmoqlardan biri bo‘lib, undagi resurslardan va biologik xilma-xillikdan oqilona foydalanish hamda uning o‘rnini to‘ldirish, agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, genetik resurslar va ilg‘or ilmiy yutuqlardan unumli foydalanish asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollarining mahsuldor nav(zot)larini yaratishga qaratilgan ilmiy yutuqlarga talab yuqoriligi hamda tarmoqni zamon talablariga moslab tubdan qayta takomillashtirish va sohaga ko‘proq agroinnovatsiya olib kirish muhim.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli Farmoniga asosan: “...qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:

- eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi “Aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish;


- agrar sektorda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash imkonini beruvchi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, shu jumladan yirik riteylerlar yordamida ta‘minlash orqali savdo bozorlarini va ularni

to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishni kengaytirishga ko‘maklashish kabi masalalar belgilab berilgan” [1].

Ilm-fan yutuqlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligida agroinnovatsiya va intellektual salohiyatning yuqoriligi bilan barqaror iqtisodiyotga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiya va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan hududga aylantirishimiz muhim.

Qoraqalpog‘iston, O‘zbekistonning yirik hududlaridan biridir bo‘lib, uning ekologik sharoitlari va geografik qonunlari xususiyatlari bilan qishloq xo‘jaligi uchun kuchli potentsialga ega.



1-rasm. Qoraqalpog‘istonning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muhim chora-tadbirlar

Qoraqalpog‘istonning qishloq xo‘jaligi rivojlantirishda quyidagi bir nechta muhim chora-tadbirlar e‘tiborga olish lozim (1-rasm):

1. Birinchi navbatda suv resurslaridan samarali foydalanish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi suvresurslari muammosi bilan bog‘liq, chunki hududni asosiy suv manbai bilan ta‘minlovchi Amudaryo daryosi suvlarining kamayishi va

suv sathi darajasining pasayishi bilan bog‘liq aniq ekologik muammolarga ega. Bu esa, qishloq xo‘jaligi uchun suv resurslarini samarali ishlatishga, suv ta‘minoti va sug‘orish tizimlarini rivojlantirishga ahamiyat keltiradi [2].

2. Tarmoq diversifikatsiyasi. Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligida diversifikatsiyalashning ahamiyati juda katta. Shu sababdan ham hududdamahsulotlar diversifikatsiyasi, chorva va baliqchilikning foydali mahsulotlarini ham qamrab oladigan integratsion tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

3. Ekologik qishloq xo‘jaligini ham unutmashlik. Qoraqalpog‘iston ekologik qishloq xo‘jaligining rivojlantirishiga ham yaxshi salohiyatga ega. Ekologik xo‘jalik tamoyillari bilan ishlovchi organik mahsulotlarni olib chiqarish, suv resurslari ta‘minoti va ekologik ishchi kuchini oshirish, mamlakat va xalqaro bozorlarga rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin [3].

4. Infratuzilma va transport sohasini rivojlantirish. Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi rivojlantirishida infratuzilmani va transport tarmoqlarini mustahkamlash ham juda muhimdir. Qishloq aholisi farovonligini yaxshilash, mahsulotlarni bozorga yetkazishni osonlashtirish va tashqi bozorlarga kirishni yanada qulaylashtirish uchun yo‘l va transport tizimlariga investitsiyalar kiritish kerak [4].

5. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratish. Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi rivojlantirishida mahsulotlarni qayta ishlash va ulardan qo‘shimcha qiymat yaratishni ta‘minlovchi qayta ishlash ham muhimdir. Bu esa, oziq-ovqat sanoati, ichimlik suvini tozalash sanoati, meva sharbati, sutni sifatli qayta ishlash, ichimliklar va boshqa qo‘shimcha qiymatli ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlarini oshiradi.

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi rivojlantirishining asosiy maqsadlari oziq-ovqat ishlab chiqarishdagi xavflarni hududning o‘zaro keng ahamiyatga ega bo‘lgan joylariga taqsimlash [5], ish o‘rinlari yaratish, aqlli qishloq xo‘jaligini va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, ekoqishloq xo‘jaligining ishlab chiqarishdagi ulushini oshirish va tashqi bozorlarni egallashni ta‘minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida. PF-5264. 29.11.2017.
2. Сауханов Ж.К. Сув ва ресурслар танқислиги шароитида қишлоқ хўжалиги экинларини оптимал жойлаштириш масалалари. // “Минтақа рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишлари” республика илмий-амалий онлайн конференцияси материаллари, - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. 44-48 б.
3. Сауханов Ж.К. Экологик танчилик шароитида чорвачиликда ишлаб чиқариш ва трансакция харажатлар. // ҚҚДУ Хабарномаси. -Нукус, 2019, №4. 41-46 б. (08.00.00 №26)
4. Сауханов Ж.К. Фермер хўжаликларининг трансакция харажатларини пасайтириш муаммолари. // Агроиктисодиёт журнали.-Т., 2018, №9. 49-52 б. (08.00.00 №25)
5. Qalmuratov B.S.«Qurilista menedjment» oqiw qollanba. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi «418_267» sonli buyug‘i Tohskent «Innovastiyon Ziyoy» 2021 184 b.